



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
Shermanova Feruza Djumaboyevna	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
Xurramov Anvar Vafqulovich	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
Olim Ziyoyev Toshpulatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
Kushakova Nargiza Islambaevna	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
Majitova Munisa Oybek qizi	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
Normurodova Qunduz Tursun qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
Po'latova Sitara Olimjonovna	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
Shomurotova Sh. X.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
Shermanova Feruza Djumaboyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
Suvanov Kamola Raimqul qizi	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
Набиев Абдулло Абдувохидович	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna	

PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNING PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich

University of business and science, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 009-0003-8342-1774

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik savodxonlikning psixologik xizmat tizimidagi o'rni, ahamiyati va zaruriyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik savodxonlik shaxsning o'z emotsional holatini anglash, boshqarish, stressga chidamlilik, empatik munosabat va samarali kommunikatsiya kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oluvchi muhim kompetensiya sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik savodxonlik darajasining yuqori bo'lishi psixologik xizmat samaradorligini oshiradi hamda ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: psixologik savodxonlik, psixologik xizmat, emotsional kompetentlik, empatiya, stressga chidamlilik, kommunikativ madaniyat, neyropedagogika, refleksiya.

Abstract: This article analyzes the role, importance, and necessity of psychological literacy in the psychological service system from scientific, theoretical, and practical perspectives. Psychological literacy is interpreted as an important competency that includes skills such as understanding and managing a person's emotional state, stress tolerance, empathetic attitude, and effective communication. The results of the study show that a high level of psychological literacy increases the effectiveness of psychological services and contributes to the formation of a healthy psychological environment in the educational process.

Key words: psychological literacy, psychological service, emotional competence, empathy, stress tolerance, communicative culture, neuropedagogy, reflection.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, важность и необходимость психологической грамотности в системе психологической помощи с научной, теоретической и практической точек зрения. Психологическая грамотность рассматривается как важная компетенция, включающая такие навыки, как понимание и управление собственным эмоциональным состоянием, стрессоустойчивость, эмпатическое отношение и эффективная коммуникация. Результаты исследования показывают, что высокий уровень психологической грамотности повышает эффективность психологической помощи и способствует формированию здоровой психологической среды в образовательном процессе.

Ключевые слова: психологическая грамотность, психологическая помощь, эмоциональная компетентность, эмпатия, стрессоустойчивость, коммуникативная культура, нейропедагогика, рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim makonida psixologik xizmatning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim subyektlarining psixologik savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatning globallashuvi, raqamli transformatsiya jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda psixoemotsional zo'riqish omillarining ko'payishi inson psixikasiga yuqori darajada talab qo'yimoqda^[1,2]. Shu bois psixologik savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish bugungi kun pedagogikasi va psixologiyasining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda psixologik savodxonlik shaxsning psixik jarayonlar va holatlarni anglash, ularni ongli ravishda boshqarish, emotsional reaksiyalarni nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy muloqot jarayonida samarali psixologik strategiyalarni qo'llash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur tushuncha nafaqat individual rivojlanish omili, balki ijtimoiy moslashuv va kasbiy muvaffaqiyatning muhim indikatorini hisoblanadi^[3,4]. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar faoliyatida psixologik savodxonlik kasbiy kompetentlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.



Pedagogning psixologik savodxonligi uning o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ijobiy psixologik muhit yaratish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish hamda ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi [5,6,7]. Shu nuqtai nazardan, psixologik savodxonlikni psixologik xizmatning konseptual poydevori sifatida o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki psixologik xizmatning samarali tashkil etilishi, avvalo, uning subyektlari – pedagoglar, psixologlar va ta'lim oluvchilarning psixologik bilim, ko'nikma va kompetensiyalar darajasiga bevosita bog'liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi – psixologik savodxonlikning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning psixologik xizmat tizimidagi o'rnini aniqlash hamda ta'lim jarayonida psixologik xizmat samaradorligini oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat [8].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik savodxonlik va uning psixologik xizmat tizimidagi o'rni masalasi turli ilmiy maktablar doirasida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur muammo bo'yicha O'zbekiston, MDH hamda xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston olimlari tomonidan psixologik savodxonlik masalasi asosan pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va shaxs rivoji kontekstida tadqiq etilgan [9,10]. Jumladan, V. Karimova psixologik savodxonlikni shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ madaniyatini belgilovchi muhim omil sifatida talqin etadi va "psixologik bilimlarning amaliy faoliyatda qo'llanilishi shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi" deb ta'kidlaydi. E. G'oziev esa psixologik bilimlarning shaxs rivojidagi o'rnini tahlil qilib, "psixologik savodxonlik shaxsning o'z-o'zini anglash va boshqarish mexanizmlarini shakllantiradi" degan xulosaga keladi.

Shuningdek, Sh. Shodmonov pedagogik jarayonda psixologik tayyorgarlikning ahamiyatini asoslab, pedagogning psixologik savodxonligi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini qayd etadi [11,12,13].

MDH davlatlari olimlari tadqiqotlarida psixologik savodxonlik ko'proq faoliyat nazariyasi va shaxsning psixologik barqarorligi nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Xususan, A. N. Leontyev faoliyat nazariyasida shaxs rivojini faoliyat bilan bog'lab, psixologik bilimlarning amaliy faoliyatda qo'llanilishi inson ongining rivojlanishiga xizmat qilishini asoslaydi.

A. V. Karpov psixologik kompetensiya tushunchasini kengaytirib, "psixologik savodxonlik reflektiv faoliyat va o'z-o'zini boshqarishning muhim tarkibiy qismidir" deb ta'kidlaydi.

B. G. Ananyev esa shaxsning psixologik xususiyatlarini kompleks o'rganib, psixologik bilimlar va ko'nikmalar insonning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [14,15,16].

Xorijiy olimlar tomonidan psixologik savodxonlik masalasi, ayniqsa, emotsional intellekt va ijtimoiy kompetensiyalar kontekstida keng yoritilgan.

D. Goleman emotsional intellekt nazariyasida "shaxsning emotsiyalarni anglash va boshqarish qobiliyati uning hayotdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir" deb qayd etadi.

P. Salovey va J. Mayer esa emotsional intellektni psixologik savodxonlikning asosiy komponenti sifatida talqin qilib, uni shaxsning ijtimoiy moslashuvi va qaror qabul qilish jarayonidagi muhim omil sifatida ko'rsatadi.

A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida esa psixologik bilim va ko'nikmalar ijtimoiy tajriba orqali shakllanishini ta'kidlab, "shaxsning xulq-atvori kuzatish va o'rganish jarayonida rivojlanadi" degan g'oyani ilgari suradi [17,18,19,20].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik savodxonlik shaxs rivojining muhim integrativ ko'rsatkichi bo'lib, u psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashda konseptual asos vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini psixologiya, pedagogika hamda neyropedagogika fanlarining zamonaviy konsepsiyalari tashkil etadi. Xususan, shaxsning emotsional-intellektual rivojlanishi, reflektiv tafakkuri va ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq ilmiy qarashlar integrativ tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, nazariy tahlil metodi qo'llanilib, psixologik savodxonlik, emotsional kompetentlik va psixologik xizmat muammolari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu metod orqali turli ilmiy maktablar qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, psixologik savodxonlikning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda uning psixologik xizmat tizimidagi o'rnini aniqlashtirildi. Empirik bosqichda psixodiagnostik metodlar majmuasi qo'llanildi. Jumladan, anketa-so'rovnoma yordamida respondentlarning psixologik savodxonlik darajasi, emotsional holati va kommunikativ xususiyatlari o'rganildi.

Test metodlari orqali emotsional kompetentlik, empatik qobiliyat, stressga chidamlilik va o'z-o'zini boshqarish darajasi aniqlanib, sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirildi. Suhbat metodi esa respondentlarning ichki kechinmalari, motivatsion omillari va psixologik qarashlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, kuzatuv metodi yordamida respondentlarning real ta'lim jarayonidagi xulq-atvori, muloqot uslublari va emotsional reaksiyalari o'rganildi. Bu metod psixologik savodxonlikning amaliy namoyon bo'lish shakllarini aniqlash hamda nazariy natijalarni amaliy kuzatishlar bilan solishtirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida matematik-statistik tahlil usullaridan foydalandi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish asosida qayta ishlanib, respondentlar orasidagi o'zgarishlar dinamikasi aniqlashtirildi.

Statistik tahlil natijalari psixologik savodxonlik darajasi bilan psixologik xizmat samaradorligi o'rtasida mavjud bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi. Tadqiqot obyekti sifatida bo'lajak pedagoglarning psixologik savodxonlik darajasi tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida respondentlarning emotsional kompetentligi, empatik qobiliyati, stressga chidamliligi, refleksiv tafakkuri va kommunikativ ko'nikmalari kompleks tarzda o'rganildi. Bu esa psixologik savodxonlikni shaxsning ko'p qirrali psixologik rivojlanish ko'rsatkichi sifatida baholash imkonini berdi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini, natijalarning ishonchliligini hamda ularning amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi. Mazkur metodlar majmuasi psixologik savodxonlikni rivojlantirish orqali psixologik xizmat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot jarayonida bo'lajak pedagoglarning psixologik savodxonlik darajasi kompleks tahlil qilinib, uning psixologik xizmat samaradorligiga ta'siri aniqlashtirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik savodxonlik shaxsning emotsional barqarorligi, kommunikativ faoliyati hamda refleksiv tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'lgan integrativ ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Tajriba va nazorat guruhleri o'rtasida o'tkazilgan qiyosiy tahlillar natijasida psixologik savodxonlik darajasining oshishi ta'lim jarayonidagi ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

1-jadval: Psixologik savodxonlik komponentlari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarining taqqoslama natijalari (foizlarda)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (TA)	Tajriba guruhi (TS)	Nazorat guruhi (TA)	Nazorat guruhi (TS)
Emotsional barqarorlik	42%	71%	44%	48%
Empatik qobiliyat	45%	74%	46%	49%
Stressga chidamlilik	40%	69%	42%	45%
Kommunikativ kompetensiya	43%	72%	45%	47%
Refleksiv tafakkur	41%	70%	43%	46%

Jadval natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, empatik qobiliyat (45 % dan 74 % gacha) va kommunikativ kompetensiya (43 % dan 72 % gacha) ko'rsatkichlarining ortishi psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta'sirning samaradorligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar sezilarli emas, bu esa maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sirning ahamiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi.

2-jadval: Psixologik savodxonlik darajasining umumiy dinamikasi (son va foizlarda)

Darajalar	Tajriba guruhi TA	Tajriba guruhi TS	Nazorat guruhi TA	Nazorat guruhi TS
Yuqori	24%	53%	21%	24%
O'rta	37%	36%	36%	35%
Past	39%	11%	43%	41%

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi respondentlar ulushi ikki baravardan ortiq oshgan, past darajadagi ko'rsatkichlar esa keskin kamaygan. Bu esa psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, psixologik savodxonlik darajasi bilan psixologik xizmat samaradorligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Yuqori darajadagi respondentlar muammoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilishga moyil, emotsiyalarni boshqarishda barqaror, ijtimoiy muloqotda faol va empatik, stressli vaziyatlarda moslashuvchanlikni namoyon



etadi. Past darajadagi respondentlarda esa aksincha, affektiv reaksiyalar, kommunikativ qiyinchiliklar va stressga chidamlilikning pastligi kuzatildi.


Olingan natijalar psixologik savodxonlikni rivojlantirish psixologik xizmat samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar Daniel Goleman tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasi hamda Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish konsepsiyasi bilan hamohangdir. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik savodxonlikni rivojlantirishda neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Chunki ushbu yondashuv inson miyasining emotsional va kognitiv jarayonlarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli, maqsadli va integrativ pedagogik ta'sirlar ta'lim muassasalarida psixologik xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

3-jadval: Psixologik savodxonlik komponentlari va psixologik xizmat samaradorligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (Pearson r koeffitsiyenti asosida)

Ko'rsatkichlar	Emotsional barqarorlik	Empatiya	Stressga chidamlilik	Kommunikativ kompetensiya	Refleksiya	Psixologik xizmat samaradorligi
Emotsional barqarorlik	1.00	0.68	0.72	0.65	0.61	0.74
Empatik qobiliyat	0.68	1.00	0.63	0.70	0.66	0.71
Stressga chidamlilik	0.72	0.63	1.00	0.67	0.64	0.76
Kommunikativ kompetensiya	0.65	0.70	0.67	1.00	0.69	0.73
Refleksiv tafakkur	0.61	0.66	0.64	0.69	1.00	0.72
Psixologik xizmat samaradorligi	0.74	0.71	0.76	0.73	0.72	1.00

Korrelyatsion tahlil natijalari psixologik savodxonlik komponentlari bilan psixologik xizmat samaradorligi o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, stressga chidamlilik ($r = 0.76$) va emotsional barqarorlik ($r = 0.74$) ko'rsatkichlari psixologik xizmat samaradorligi bilan eng yuqori darajada bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu natijalar shuni anglatadiki, psixologik xizmat samaradorligini oshirishda shaxsning emotsional holatini boshqarish va stress omillariga moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, empatik qobiliyat ($r = 0.71$) va kommunikativ kompetensiya ($r = 0.73$) ham yuqori korrelyatsiyani ko'rsatib, psixologik xizmat jarayonida samarali muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sir muhimligini tasdiqlaydi.

Refleksiv tafakkur bilan bog'liqlik ($r = 0.72$) esa shaxsning o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati psixologik xizmat natijadorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Umuman olganda, olingan natijalar psixologik savodxonlikning barcha komponentlari o'zaro integratsiyalashgan holda psixologik xizmat samaradorligini ta'minlovchi kompleks tizimni tashkil etishini isbotlaydi.



1-rasm: Psixologik savodxonlik komponentlari va psixologik xizmat samaradorligi o'rtasidagi aloqadorlik

Mazkur diagrammada psixologik savodxonlik komponentlari bilan psixologik xizmat samaradorligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik vizual tarzda aks ettirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, barcha komponentlar ijobiy va yuqori darajadagi bog'liqlikka ega. Eng yuqori ko'rsatkich stressga chidamlilik ($r = 0.76$) ga tegishli bo'lib, bu omil psixologik xizmat samaradorligini belgilovchi asosiy determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Emotsional barqarorlik ($r = 0.74$) va kommunikativ kompetensiya ($r = 0.73$) ham yuqori natijalarni ko'rsatgan. Empatik qobiliyat va refleksiv tafakkur ko'rsatkichlari nisbatan pastroq bo'lsa-da, ular ham psixologik xizmat samaradorligi bilan kuchli ijobiy bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu esa psixologik savodxonlik komponentlarining o'zaro integratsiyalashgan holda psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi muhim nazariy va amaliy omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, psixologik savodxonlik shaxsning emotsional barqarorligi, empatik qobiliyati, kommunikativ kompetensiyasi, refleksiv tafakkuri hamda stressga chidamliligi kabi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks integrativ tizim sifatida namoyon bo'ladi. O'tkazilgan empirik tahlillar, jumladan, korrelyatsion natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik savodxonlik komponentlari bilan psixologik xizmat samaradorligi o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjud.

Ayniqsa, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik ko'rsatkichlari psixologik xizmatning natijadorligiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy determinantlar sifatida ajralib chiqdi. Bu esa psixologik xizmat tizimida shaxsning emotsional boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, psixologik savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar va talabalar ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishga, samarali muloqot o'rnatishga, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishga hamda o'z faoliyatini refleksiv baholashga moyil ekanligini ko'rsatdi.

Aksincha, psixologik savodxonlik darajasi past bo'lgan respondentlarda emotsional beqarorlik, kommunikativ qiyinchiliklar va stressga nisbatan past chidamlilik holatlari ko'proq kuzatildi. Mazkur ilmiy natijalar psixologik savodxonlikni rivojlantirish psixologik xizmatni modernizatsiya qilishning konseptual asosi ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari shaxsning emotsional va kognitiv rivojlanishini uyg'unlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzamurodovich, F. M. (2023). Concepts Of Formation And Development Of Psychological Literacy In Continuous Education// *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 495–497.
2. Fayzullayev, M. M. (2023). Psychological Literacy And Its Assessment In Youth// *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 170–172.
3. Fayzullayev, M. (2023). O'smirlarda psixologik savodxonlik konstruksiyalari// *Академические исследования в современной науке*, 2(19), 129–133.
4. Fayzullayev, M. (2024). Introducing Psychological Literacy// *Академические исследования в современной науке*, 3(22), 32–35.
5. Fayzullayev, M. M. (2022). Discrimination Is A Violation Of Human Rights And Is A Problem For Students, Especially In Times Of Psychological Change// *International Conference On Learning And Teaching*, 1(4), 429–431.
6. Eshnev, N. J., & Fayzullayev, M. M. (2021). Discrimination in Education// *Academic Research in Educational Sciences*, 2(CSPI Conference 1), 550–553.
7. Fayzullayev, M., & Dexqonov, T. (2025). Oila psixologiyasi: farzand tarbiyasida emotsional intellektning ahamiyati// *Молодые ученые*, 3(24), 98–101.
8. Fayzullayev, M. (2025). Psixologik maslahat va kouching fanining hozirgi kundagi o'rni va dolzarbligi// *Наука и инновация*, 3(24), 175–178.
9. Mirzamurodovich, F. M. (2025). Psychological Literacy In Adolescents As A Factor Of Socialization// *Shokh Library*, 1(12).
10. Fayzullayev, M., Xamraqulov, M., & Lutfiddinov, M. (2025). O'smirlik davrida kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar// *Наука и технология в современном мире*, 4(17), 22–25.
11. Mirzamurodovich, F. M. (2024, October). O'smirlarda psixologik savodxonlikni aniqlashda korrelatsion tahlil// *In Russian-Uzbekistan Conference (Vol. 1, No. 1)*.
12. Mirzamurodovich, F. M. (2026). O'smirlarda psixologik savodxonlik shakllanishining motivatsion omillari va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari// *Shokh Library*, 1(1).
13. Mirzamurodovich, F. M. (2026). Teacher at the Department World Languages of Kokand University. *Shokh Articles Library*, 1(1), 348–354.
14. Mirzamurodovich, F. M. (2025, December). Psixologik savodxonlikni o'smirlik davrida rivojlantirishning psixologik determinantlari// *In Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 243–249)*.
15. Mirzamurodovich, F. M. (2025). INKLYUZIV TA'LIMGA MUHTOJ BOLALARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNING NAMOYON BO'LISHI. *Research Focus*, 4(Special Issue 2), 489–494.



16. Mirzamurodovich, F. M. (2026, January). The Impact Of Psychological Literacy On Adolescent Intellectual Development// In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 3, No. 2, pp. 458–462).
17. Mirzamurodovich, F. M. (2026). Stress Tolerance Is A Personal Factor That Determines The Level Of Psychological Literacy// Shokh Articles Library, 1(1), 375–381.
18. Anvarovna, A. S. (2025). Pedagogical and Psychological Factors Determining the Effectiveness of the Social-Emotional Competence of a Foreign Language Teacher in Higher Education. *American Journal of Open University Education*, 2(9), 54–59.
19. Umirovich, A. O., & Anvarovna, A. S. (2023). Views of thinkers on issues of family and family relations. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 508–511.
20. Ataxo'jayeva, S. A. (2023). O'qituvchilarining sotsiologiyistik xususiyatlari. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(TMA Conference), 111–115.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.